Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishla...

ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Ishlab chiqarish omillarining cheklanganligi ekstensiv o‘sishning imkoniyatlarini chegaralaydi. Shu sababli resurslar cheklanganligi sharoitida intensiv o‘sish samarali hisoblanadi. Fantexnika taraqqiyoti ham intensiv iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi. Keyingi yillarda bir qator ijtimoiy ko‘rsatkichlar iqtisodiy o‘sish sharti va natijasi tarzida qaralmoqda. O‘sish sohasida — bandlikning yuqori dinamikasi; taqsimot sohasida — aholining real daromadlari va boshqalar bir qator ko‘rsatkichlar dinamikasi; ayirboshlash sohasida — savdo va umumiy ovqatlanish moddiy bazasining rivoji, chakana savdo aylanmasi dinamikasi; iste’mol sohasida — iste’molning va noishlab chiqarish jamg‘arishning o‘sishi shunday ko‘rsatkichlarga kiradi. Iqgisodiy o‘sishning asosiy ijobiy tomoni — uning ishlab chiqarish va iste’mol tuzilmasi o‘zgarishlariga ta’sir ko‘rsatishidir [3].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://yuz.uz/uz/news/barqaror-iqtisodiy-osish--xalq-farovonligi-garovi
2. Vaxabov A.V., Rasulov T.S., Berkinov B.B., Asqarova M.T.,“Makroiqtisodiy siyosat va barqaror iqtisodiy o‘sish strategiyalari” moduli bo‘yicha o‘quv –uslubiy majmua. Toshkent – 2016. 57-bet.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma’lumotlaridan foydalanilgan.

SUN’IY INTELLEKT VA UNING IQTISODIYOTGA TA’SIRI

Turayeva Gulizahro Qaxxorovna
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi
Xabibullayev Islomjon Nematulla o‘g‘li
Guliston davlat universiteti magistri
Mamatkarimova Charos Baxrom qizi
Guluston Davlat Universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) va uning iqtisodiyotga ta'siri tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, mehnat unumdorligini oshirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Biroq, SI ba'zi kasblarni yo‘qotish xavfini ham keltirib chiqaradi. Shuningdek, sun’iy intellekt ijtimoiy muammolarni hal qilishda, masalan, iqlim o‘zgarishi va ochlik kabi global muammolarni yechishda yordam beradi. Kelajakda sun’iy intellekt global iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko‘rsatishi kutilmoqda, bu esa iqtisodiy o‘sishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Sun'iy intellekt, Shumpeterian iqtisodiyoti, raqamlashtirish, Sun'iy intellekt (SI) qo‘llanish usullari.

KIRISH

Sun’iy intellekt — informatikaning alohida sohasi bo‘lib, odatda inson ongi bilan bog‘liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o‘rgatish, muhokama qilish, masalani echish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug‘ullanadi.Hozirda SI turli amallarni bajarishga mo‘ljallangan algoritm hamda dasturiy tizimlardan iborat va u inson ongi bajarishi mumkin bo‘lgan bir qancha vazifalarning uddasidan chiqa oladi.1990 yillarda SI taraqqiyotida yangi sahifa ochildi. 1997 yilda Deep Blue nomli IBM kompyuteri shaxmat bo‘yicha jahon chempioni Garri Kasparovni enggan tarixdagi ilk kompyuter bo‘ldi.Ining yorqin namunalaridan yana biri – IBM Watson superkompyuteri bo‘lib, u o‘z bazasidan kelib chiqib muayyan tilda berilgan

Published: 23.12.2024
Cite this article: Turayeva Gulizahro Qaxxorovna, Xabibullayev Islomjon Nematulla o‘g‘li, Mamatkarimova Charos Baxrom qizi (2024). Sun’iy intellekt va uning iqtisodiyotga ta’siri. Emro Science and Education, 1(4). https://journal.emro.uz/public/maqola/953
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

savollarga javob beradi. Shuningdek, ko‘pchilikning doimiy hamrohiga aylanib ulgurgan mobil yordamchi Siri, fotosuratlarni qayta ishlovchi Prisma kabi dasturlarni SIning yutuqlaridan biri sifatida qayd etish mumkin. Hozirga kelib sun’iy intellekt keng ko‘lamda ommalashib kundalik turmush tarzimizning deyarli barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Masalan, Xitoydagi Inchuan shahri aholisiga bank kartalarining keragi yo‘q. Hisob-kitoblar bilan bog‘liq barcha jarayonlar sun’iy intellekt tomonidan insonning yuz qiyofasini aniqlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Ilon Maskning fikricha, “SI insoniyat tsivilizatssiyasi uchun asosiy xavfdir. SI mehnat bilan bog‘liq ommaviy muammolarni keltirib chiqaradi. Sababi, robotlar hamma ishni bizdan ko‘ra yaxshiroq bajara olishadi. Ilg‘or texnologiyalar ortidan quvish natijasida, kompaniyalar sun’iy intellekt ortidan kelib chiqadigan xavf-xatarni ko‘rmay qolishlari mumkin”. Shuningdek, Microsoft rahbari Bill Geyts ham uning zarariga to‘xtalib o‘tadi.“Bir necha o‘n yildan so‘ng, robotlar ishning katta qismini bajara boshlagach, SI shu qadar kuchayib ketadiki, yakunda u bizni xavotirga sola boshlaydi.Bu borada Ilon Maskning fikriga qo‘shilaman. Ammo nega bu savol boshqalarni tashvishlantirmayotganiga hech tushunolmayman”, – deydi Geyts. “Boshqalar” deganda Geyts Facebook egasi Mark Tsukerbergni nazarda tutgan bo‘lsa, ajab emas. Chunki, Mark SIga nisbatan ijobiy munosabatda ekanligini bildirar ekan: “Yangi texnologiyalar har doim ham yaxshilik yoki yomonlik qilish maqsadida yaratilishi mumkin. SIning keng tarqalishi ortidan keladigan ijobiy natijani esa, yaqin 5-10 yil ichida ko‘ramiz”, deya Ilon Maskning fikriga e’tiroz bildirgan edi.

SI haqidagi bahs-munozaralar qariyb 50 yildan beri davom etib kelmoqda. Mutaxassislar hanuzgacha bir to‘xtamga kelishgani yo‘q. Ba’zilar ularning ommalashib odamlar o‘rnini egallab borayotgani natijasida ommaviy ishsizlik ko‘rsatkichlari oshib ketishi mumkinligidan tashvishdalar. Mutaxassislarning boshqa bir guruhi esa SIga ijobiy munosabatda bo‘lish kerakligini uqtirishmoqda.

MUXOKAMALAR VA NATIJALAR

Bugungi kunda ayrim davlatlarda robot-hamshiralar, xaydovchisiz transport vositalari, buyurtmani etkazib beruvchi dronlar xizmatidan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Hatto politsiya xodimlarining ba’zi vazifalarini ham maxsus robotlar bajarishyapti. Olimlar ularning tashqi ko‘rinishini imkon qadar odamlarnikiga o‘xshatishga urinishmoqda. Bundan tashqari, SI jurnalistlarning doimiy ko‘makchisiga aylanib ulgurgan. Masalan, Associated Pressda “ishlayotgan” robotlar moliyaviy hisobotlarni yozib boradi. SIning qo‘llanilishi ushbu nashrda har chorakda beriladigan yangiliklarni 300 tadan 4400 taga oshirdi. Iqtisodiyotda sun'iy intellektning afzalliklari quyidagilardir: katta ma'lumotlarning namunalarini tezkor aniqlash, tezkor vizuallashtirish va tahlil qilish, takomillashtirilgan mahsulot dizayni, batafsil tahlil. Bu imtiyozlar iqtisodiy sohadagi xizmatning yangi turlarini yaratish, biznesning kengayishiga, foydaning oshishiga, ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotda samaradorlikni oshirishga hamda xarajatlarning kamayishiga olib keladi Sun’iy intellekt sohasida keng tarqalagan asosiy turlaridan mashinali o‘rganish va chuqur o‘rganishlardan korxonalar faoliyati yuritishda va mijozlar bilan ishlashda keng foydalanilmoqda. Mashinali o‘rganish - bu kompyuterni ko‘rish, robotni boshqarish, nutq va yuzni aniqlash va boshqalarni tanlash uchun sun'iy intellektning usuli. Ko‘pgina sun'iy intellektni ishlab chiquvchilar tizimni misollarni ko‘rsatish orqali o‘qitish uni qo‘lda bajarishdan ko‘ra osonroq deb hisoblashadi. Chuqur o‘rganish algoritmlari - bu mashinali o‘rganish algoritmlarining bir qismidir. Hozirgi xizmat ko‘rsatish sohalarining barchasida SI tizimlaridan foydalanish asosiy innovatsion faoliyat bo‘lib qoldi. Kompyuterni ko‘rish, transferni o‘rganish, tabiiy tilni qayta ishlash va boshqalar bu chuqur o‘rganish uslubining yondashuvlari yuqori darajadagi muammolarni hal qilishda, katta ma'lumotlarning

murakkab tuzilmalarini kashf etishda, tasvir va nutqni tanib olishda keng foydalanilmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, Sun'iy intellekt (SI) - bu ish o‘rinlarini yaxshilash, yuqori samaradorlikni yaratish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish uchun inson aql-zakovatiga taqlid qiluvchi tizimlardir. Sun'iy intellekt faoliyati natijasida paydo bo‘lgan intellektuallar samaradorlikni oshirish va biznes jarayonlari uchun yangi bilimlarni yaratish uchun zarur bo‘lgan ko‘plab nou-xaularga ega. Sun'iy intellekt - bu aqlli tizimlar xodimlar uchun texnologik platformalar orqali qimmatli ma'lumotlardan foydalanish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5.10.2020 yildagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5234-son Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.08.2021 yildagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISHDA O‘ZBEKISTONDA SUV RESURSLARINI BOSHQARISHDA YASHIL TEXNOLOGIYALAR VA AYLANMA IQTISODIYOT

Sotvoldiyeva Muslimaxon G`ayratjon qizi
FarPi
muslimasotvoldiyeva201@gmail.com

Annotatsiya. Tezisda O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarishda yashil texnologiyalar va aylanma iqtisodiyot tamoyillarini qo‘llashning ahamiyati tahlil qilingan. Ushbu yondashuvlarning barqasror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi iqtisodiy va ekologik samaralari ko‘rib chiqilgan hamda amaliy takliflar taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar. Barqaror rivojlanish maqsadlari, yashil texnologiyalar, aylanma iqtisodiyot, suv resurslarini boshqarish, innovatsiyalar, O‘zbekiston.

Kirish. O‘zbekiston geografik joylashuvi va iqlim sharoitlari sababli suv resurslariga nisbatan yuqori talab va cheklangan imkoniyatlarga ega mamlakatlardan biridir. Aholi sonining o‘sishi va iqtisodiy faoliyatning kengayishi bilan suv resurslarining taqchilligi yanada keskinlashmoqda. Ushbu muammo nafaqat iqtisodiy barqarorlikka, balki ekologik muvozanatga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishishda suv resurslarini samarali boshqarish muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, yashil texnologiyalarni joriy etish orqali suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va ekologik zararlarni minimallashtirish mumkin. Bunday texnologiyalar, suvni takror ishlash, chiqindilarni qayta tiklash va energiyani tejash orqali iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta’minlaydi.

Aylanma iqtisodiyot tamoyillari suv resurslarini boshqarishda innovatsion yondashuvlarni taklif etadi. Bu tamoyillar chiqindilarni resurs sifatida ko‘rish va ulardan qayta foydalanish orqali resurslardan optimal foydalanishni maqsad qiladi. O‘zbekiston sharoitida bu yondashuv, suv resurslarini boshqarishda yangi strategiyalarni shakllantirish va barqaror rivojlanishga erishish uchun samarali yechim bo‘lishi mumkin.